



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2024- yil
Yanvar-fevral

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, Toshkent shahrida jami 5420,1 mld. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 126,0 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik korxona va tashkilotlar

10,8

29,7

59,5

Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil 1-mart holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*



Yillar kesimida soni



3 622

Bino va inshootlar
qurish


723

Fuqarolik obyektlarini
qurish

3 009

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 102,5 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,3 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,8 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,1 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 40,9 foiz ulushni va 98,2 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.03.2023- y.	01.03.2024- y.	
Toshkent shahar	7 354	7 177	102,5

tumanlar:

Bektemir	188	182	103,3
Mirzo Ulug'bek	966	931	103,8
Mirobod	662	808	81,9
Olmazor	549	526	104,4
Sergeli	476	410	116,1
Uchtepa	429	440	97,5
Chilonzor	859	843	101,9
Shayxontohur	523	533	98,1
Yunusobod	865	847	102,1
Yakkasaroy	738	710	103,9
Yangihayot	279	223	125,1
Yashnobod	820	724	113,3



**2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra,
Toshkent shahrida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Mirzo Ulug‘bek (13,1)



Yunusobod (11,8)



Chilonzor (11,7)





Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar	5 420,1	1 608,8	3 226,4	584,9
tumanlar:				
Bektemir	110,6	13,9	88,2	8,5
Mirzo Ulug'bek	624,9	90,6	472,2	62,1
Mirobod	636,4	217,2	368,8	50,4
Olmazor	380,6	92,1	216,0	72,5
Sergeli	215,9	36,9	128,7	50,3
Uchtepa	163,1	11,7	124,7	26,7
Chilonzor	308,8	7,3	266,9	34,6
Shayxontohur	499,9	310,1	137,8	52,0
Yunusobod	977,8	292,7	589,4	95,7
Yakkasaroy	797,1	400,1	345,5	51,5
Yangihayot	152,7	63,8	56,6	32,3
Yashnobod	552,4	72,3	431,5	48,6

2024- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 608,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 270,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 62,0 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 322,9 %) Yakkasaroy tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 50,2 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 331,6 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,3 %i to‘g‘ri kelib, 2023-yil yanvar-fevral oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 15,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni tashkil etgan holda 3 226,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



59,3

2024- yil
yanvar-fevral

74,4


2023- yil
yanvar-fevral



MA‘LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Yunusobod tumanida (589,4 mlrd. so‘m yoki ulushi 18,3 %), Mirobod tumanida 368,8 mlrd. so‘m yoki ulushi 11,4 %) va Mirzo Ulug‘bek tumanida (472,2 mlrd. so‘m yoki ulushi 14,6 %) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 10,8 %ni tashkil etdi yoki 584,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,6 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 858,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 35 364,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,4 % va 97,6 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-fevral oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **70,2** % i yoki **3 804,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

39,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 365,4** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **39,1** % ni tashkil etdi.

49,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 718,3** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,2** % ni tashkil etdi.

11,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **406,3** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **11,6** % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	5 420,1	126,0	100,0
tumanlar:			
Bektemir	110,6	107,7	2,0
Mirzo Ulug‘bek	624,9	113,5	11,5
Mirobod	636,4	137,8	11,7
Olmazor	380,6	125,0	7,0
Sergeli	215,9	117,7	4,0
Uchtepa	163,1	91,3	3,0
Chilonzor	308,8	68,2	5,7
Shayxontohur	499,9	174,9	9,2
Yunusobod	977,8	139,9	18,0
Yakkasaroy	797,1	160,9	14,7
Yangihayot	152,7	125,6	2,8
Yashnobod	552,4	118,5	10,2



Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko’rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.


Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,7 % ni tashkil etib, 2023- yil yanvar-fevral ko'rsatkichga nisbatan 8,9 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,0 % punktga ko'payib, 62,1 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 12,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 44,8 % ni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-fevralga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 54,3 % (1,9 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil yanvar-fevral



Kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yil yanvar-fevral

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi va 33,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 67,0 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga ko'payaydi.

ulushi % da

33,5

2023- yil
yanvar-fevral

2023- yil
yanvar-fevral

66,5

33,0

2024- yil
yanvar-fevral

2024- yil
yanvar-fevral

67,0

*Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi*

*Kichik korxona va
mikrofirmalar
ulushi*


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral

	Qurilish ishlari, mldr. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	5 420,1	3 584,0	783,5	1 052,7
tumanlar:				
Bektemir	110,6	85,4	21,6	3,5
Mirzo Ulug'bek	624,9	456,5	98,5	69,9
Mirobod	636,4	486,3	83,5	66,5
Olmazor	380,6	319,7	55,0	6,0
Sergeli	215,9	155,3	34,2	26,4
Uchtepa	163,1	98,4	30,5	34,2
Chilonzor	308,8	182,0	70,5	56,4
Shayxontohur	499,9	264,8	53,0	182,1
Yunusobod	977,8	661,7	125,6	190,5
Yakkasaroy	797,1	423,3	101,4	272,4
Yangihayot	152,7	100,0	33,2	19,6
Yashnobod	552,4	350,7	76,5	125,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-fevral



ulushi % da



2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani 977,8 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (797,1 mlrd.so'm), Mirobod tumani (636,4 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani (624,9 mlrd.so'm) ga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)